

№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalashning Moliyaviy Zarurligi va Ahamiyatini Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	3
2.	<i>PRIMENENIE MCFO 17 V STRAHOVAY SISTEME UZBEKİSTANA: PERСПЕКТИVY VNEDRENIYA I POTEНCIALNAY PROBLEMY. ANALIZ REZERBOV I ZAKONODATELNYX BARYEROV Bаратова Динора Алишеровна</i>	6
3.	<i>SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	10
4.	<i>O'ZBEKİSTONDA "YASHIL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	13
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH Umarova Gulnora Akromovna</i>	16
6.	<i>O'ZBEKİSTONDA AVTOMOBİL TRANSPORT SUG'URTASINI TAKOMILLASHTIRISH Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	18
7.	<i>O'ZBEKİSTONDA AVTOTRANSPOST SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI Yakubova Nargiz Tursunbayevna, Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	20
8.	<i>O'ZBEKİSTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi, Akbaraliyeva Diyora</i>	22
9.	<i>PERСПЕКТИVY I BARYERY RAZVITIYA ISLAMSKOGO STRAHOVANIIA (TAKAFUL) V UZBEKİSTANE Myradova Dilgora Abdusaliyevna</i>	26
10.	<i>YASHIL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMIY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV Erkaboev Yorbek Boirbekovich</i>	31
11.	<i>MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH Xolbaev Azamat Yuldashevich</i>	34
12.	<i>PREIMUЩESTVA STRAHOVANIE I EGO ROL' V EKONOMIKE Умарова Хуршида Олимжоновна</i>	38
13.	<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIALASH: HOMIYLIK MABLAG'LAG'LARIDAN FOYDALANISH Dildora Bohodirovna Abdusattarova</i>	42
14.	<i>SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHЛИI Tog'auniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	45
15.	<i>ZELÉNIE OBLIGACII I KREDITY: NOVYYI VEKTOR USTOЙЧIVOGO PОСTA UZBEKİSTANA Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи, Каримов Комилжон Хамидович</i>	48
16.	<i>ZELENAЯ EКОНОМИКА UZBEKİSTANA: ПУТЬ K USTOЙЧIVOMU RAZVITIYU CTRANI Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи</i>	51

“O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo'jayevich (Kengash raisi o'rinnbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o'rinnbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich ("O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishslash markazi rahbari, dots.).
10. Quldashev Qamariddin Mansurovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasni mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.)
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A'zamjonovich ("Kafil Sug'urta" AK sug'urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O'zbekiston madaniyat va san'at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullahayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU "Moliya bozori va sug'urta" kafedrasni mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasni professori, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU Magistratura bo'yicha dekan o'rinnbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrasni professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU "Sug'urta" kafedrasni professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU "Marketing" kafedrasni dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU "Sug'urta" kafedrasni dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo'latovich (TDIU "Sug'urta" kafedrasni dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o'g'li (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni dotsenti, i.f.n.).



MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Xolbaev Azamat Yuldashevich

i.f.b.f.d., dots. TDIU

e-mail: xolbayev.azamat80@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/297

Annotatsiya: Maqolada milliy sug'urta bozorida informatsion risklarni sug'urtalash mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Jadal raqamlilashuv va kiberxavfsizlikka bo'lgan tahdiddar ortib borayotgan bir sharoitda informatsion xavfsizligini ta'minlash dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Shuningdek, sug'urta tizimining samaradorligi va ishonchiligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish, xatarlarni baholash usullarini takomillashtirish hamda davlat-xususiy sheriklikka asoslangan yondashuvlarga alohida e'tibor qaratiladi. orqali sug'urta sohasida erishilishi kutilgan natijalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: sug'urta, kibersug'urta, moliyaviy resurs, informatsion risklar, sug'urta xizmatlari, sug'urta mukofotlari, ustav kapitali, zaxira.

Abstract: The article is devoted to the issues of improving the mechanisms of informational risk insurance in the national insurance market. In a situation of increasing rapid digitalization and threats to cyber security, ensuring the security of Informationism is becoming one of the pressing problems. Proposals and recommendations will also be developed aimed at improving the efficiency and reliability of the insurance system. Particular attention will be paid to the introduction of innovation insurance products, improvement of risk assessment methods and approaches based on public-private partnership. through the insurance industry, the expected results to be achieved are described.

Keywords: insurance, cybersecurity, financial resource, informational risks, insurance services, insurance premiums, authorized capital, reserve.

Абстрактный: Статья посвящена вопросам совершенствования механизмов страхования информационных рисков на национальном страховом рынке. В условиях растущей стремительной цифровизации и угроз кибербезопасности обеспечение информационной безопасности становится одной из актуальных проблем. Также будут разработаны предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности и надежности системы страхования.

Особое внимание будет уделено внедрению инновационных страховых продуктов, совершенствованию методов оценки рисков и подходов, основанных на государственно-частном партнерстве. в рамках страховой отрасли описываются ожидаемые результаты, которые должны быть достигнуты..

Ключевые слова: страхование, кибербезопасность, финансовые ресурсы, информационные риски, страховые услуги, страховые взносы, уставный капитал, резерв.

Kirish (Введение /Introduction).

Jahonda raqamli iqtisodiyot sharoitida bozor ishtirokchilarining tijorat sirlari maxfiyligini yanada mustahkalash pirovardida iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirishda, elektron tijorat transformatsiyasini iqtisodiy yo'qotishlarsiz va samarali joriy etishda, hamda bu xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini har tomonlama iqtisodiy ta'minlashda zamonaviy sug'urta xizmatlaridan foydalanishni kengaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jahon kiberxavfsizlik taddiqotlari hisobotiga ko'ra, «2023 yilda global kibersug'urta bozori hajmi 13,78 mlrd.AQSh dollarni tashkil etadi. 2029 yilga kelib mazkur ko'rsatkich 53,34 mlrd.AQSh dollariga etkazish proqnoz qilinmoqda» . Raqamli texnologiyalarning jamiyat va davlat faoliyatiga yanada keng kirib borishi milliy sug'urta bozorida amalada bo'lgan sug'urta xizmatlarini yanada takomillashtirish, hamda zamonyiy sug'urta turlarini keng joriy etishga qo'lay imkoniyatlarni taqdim etish, sub'ektlarning raqamli va informatsion risklarda himoyalanganlik darajasini oshirish, ularga xorijiy ilg'or sug'urta xizmatlarini taqdim etish orqali informatsion risklarning salbiy ta'sirlarini kamaytirish borasida samarali moliyaviy-iqtisodiy echimlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jahonda sug'urta xizmatlari bozorining barqarorligini ta'minlash, risklarni baholash tizimini takomillashtirish, informatsion risklarni samarali boshqarish, taqsimotini takomillashtirish, aktuariy hisob-kitoblarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda. Informatsion risklarni sug'urtalash samaradorligini oshirish maqsadida shartnomaga oldi ekspertizada tabaqalashgan chegaraviy me'yoriy miqdorlarini belgilash, sug'urtaga qabul qilinayotgan informatsion resurslarning qiymati, xavfi va tahdidlardan

himoyalanmaganlik darajasi, elektron tijorat platformalari va informatsion aktivlarning xavfsizligini ta'minlash, informatsion risklar bo'yicha tariflarni differensiatasiyalash hamda huquqiy himoya qilish xarajatlarini qoplash bo'yicha yagona ilmiy asoslangan yondashuvlarga mayjud emasligi mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligidan dalolat bermoqda.

O'zbekistonda sug'urta bozorini zamonoviy davlatlar bozoriga tenglashtirish va uning samarali rivojlanishi ta'minlash, informatsion risklarni sug'urtalash borasida yangi sug'urta xizmatlarini taklif etish, sug'urta bozorining ko'lami va sig'imini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda «davlat tomonidan sug'urta tizimini qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish» vazifasi belgilangan. Sug'urta bozori oldida turgan vazifalarni ta'minlashda informatsion risklarni sug'urtalash turlariga bozorda talab yuqori bo'lgan va yangi talablarni shakllantirish borasida yangi sug'urta turlarini joriy etish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahili (Обзор литератур / Literature review). Informatsion risklarni sug'urtalashning moliyaviy-iqtisodiy jihatlari xorijiy iqtisodchi olimlar K.Ruan o'zining maqolasida risk tushunchasi haqida ko'plab ma'lumotlar berib o'tgan,[1] Paul Klumpes, Donatella Porrini maqolasida risk tushunchasi va uni kamaytirish masalalri bo'yicha o'zlarining fikirlarini yoritib o'tgan [2], Germaniyalik olimlar R.Böhme hamda G.Schwartz o'z maqolalarida sug'urta bozorida risk tushunchasi va ularning kamaytirish yo'llari tug'risida ma'lumotlar berib o'tgan [5], Xitoylik olim H.Narang va O'zbekistonlik olim A.Sharapov o'zlarining maqolasida sug'urta bozorida Infarmatsion risklar sug'urtaning asosi deb

aytib o'tadi[4], Rus olimlari Ye.Baranova, I.Ivanov o'zlarining maqolasida sug'urta bozoridagi asosiy muammo bu sug'urta risklarini kamaytirish deb ma'lumot berishadi,[6] V.Nomokonov, T.Tropina o'z maqolasida infarmatsion risklarni sug'urtalash rivojlangan sug'urta bozorining asosiy omillaridan biri hisoblanadi deb atashadi,[9] S.Smirnov, L.Mamaeva esa maqolasida infarmatsion risklarni sug'urtalashda sug'urta mukofotlarini hisoblash omillarini aytib o'tgan [3], V.Larionovlar tadqiqotlarida uchraydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar: H.Sobirov, X.Shennaev, Q.Qo'ldoshev, A.Jo'raev, S.Umarov, R.Azimov maqollarida sug'urta bozorida infarmatsion risklarni hisoblash omillari hamda sug'urta bozorida sug'urta mukofotlarini hisoblash haqida aytib o'tadi [10], T.Baymuratov, I.Abduraxmonov, G.Xalikulova, I.Kenjaev, S.Sherov sug'urta bozorida infarmatsion risklarni hisoblash masalalari bo'yicha o'z fikirlarini yoritib o'tgan [11] F.Xasanov U.Imomov maqolasida infarmatsion risklarni sug'urtalash rivojlangan sug'urta bozorida asosiy muammoli vaziyat deb fikir bildirishgan [12], G.Adilovlar ning tadqiqotlarida sug'urta sohasi va infarmatsion risklarni sug'urtalashning ayrim masalalari tadqiq etilgan.

Tadqiqot usullari (Методы исследования /Methodology).

Tadqiqotni bajarish jarayonida tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhshtirish va umumlashtirish, ekspert baholash va proqnozlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalananidi.


Tahlil va natijalar (Анализ и результаты /Analysis and results).

Sug'urta sohasi mamlakat iqtisodiyotining barqaror yuksalishning asosiy moliyaviy omillaridan biridir. Bu himoya tiziminining rivojlanganligi to'g'ridan-to'g'ri mamlakat sub'ektlarini rivojlanishi bilan bog'liqdi. Ularni samarali ishlashi, faoliyat ko'rsatishi kelajakda barqaror rivojlanishi, o'z faoliyatlariga yangi infarmatsion texnologiyalarni joriy etishlari uchun samarali himoya mexanizmi sifatida namoyon bo'lishi mana bir necha yillardan beri o'z isbotini topib kelmoqda. Ularning asl iqtisodiy mohiyati bu har qanday shakldagi sub'ektning faoliyatida yuz berish mumkin bo'lgan ko'ngilsiz (iqtisodiy, moliyaviy, tabiiy ofatlar, texnogen zararlar) holat va hodisalarni bartaraf etishda samarali moliyaviy himoya vositasida ularga yordamchi bo'lishga asoslanandi.

2019 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini islohot qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi[3] Qarori mahalliy sug'urta bozorini yanadi rivojlanishi va unga yangi mahsulotlarni kiritish uchun yangi davrni boshlab berdi. Qarorda yaqin istiqbolda sug'urta sohasi ko'rsatkichlari beglilab berilganligi quvonlarli holatdir. Shundan kelib chiqqan holda mayjud sug'urta turlarini takomillashtirish va yangilarini rivojlanishirish borasida me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilib bormoqda. Bunda nafaqat maxsus vakolatlari davlat organi balki sug'urta kompaniyalarining o'zlarini ham xorijiy mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda o'z sug'urta turtalarini takomillashtirib borishmoqda.

Quyida mazkur qaror asosida yaqin istiqbolda rejalashtirilgan ko'rsatkichlar keltirib o'tilgan. Bu ko'rsatkichlar sug'urta turlari va jami sug'urta bozori bo'yicha kamida erishishli kerak bo'lgan kzrsatkichlarni ifoda etadi. Bunlarning samarali bajarilishi ta'minlashda aynan milliy sug'urta bozorida oqsqolayotgan sug'urta turlarini rivojlanishirish va yangi sug'urta turlarini joriy etish orqali amalga oshirilishi hek kimga sir emas.

Sug'urta raqamli iqtisodiyot sharoitida sub'ektlar tomonidan raqamli makonda faolroq faoliyat olib borishga undash, ularga moliyaviy motivatsiya berish, ularni noaniqlik sharoitlarida faol ish yuritishga undaydigan moliyaviy himoya tizimi sifatida maydonga chiqadi.




1-rasm. Sug'urta mukofotlarning yalpi ichki mahsulotdag'i ulushi, foizda¹

Mamlakatda har tomonlama xavf-xatarlarni himoya qilishning mexanizmlarning mavjudligini ko'rsatuvchi omillardan biri bu milliy

sug'urta tizimining mavjudligi va uning amal qilish asoslarining yo'liga qo'yilganligi hisoblanadi. Uni aks ettiruvchi bir nechta ko'rsatkichlar jamlanmasi mavjudir. Bunday ko'rsatkichlarga biz milliy sug'urta bozorida yig'ilgan mukofotlarning mamlakat YalIM ulushini keltirishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich rivojlanigan mamlakatlarda o'rtacha 8-9 foizni, rivojlanayotgan mamlakatlarda 5-7 foizni tashkil etadi. Milliy sug'urta bozorimizda bu ko'rsatkich qaror bo'yicha 2022 yil yakunlari bo'yicha 0,70 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yil esa bu ko'rsatkich 0,75 foizni tashkil etgan (1-rasm).

Mamlakatimiz sug'urta sohasini rivojlanirish uni risklardan himoya qilishning samarali mexanizmiga aylantirish borasida sayyi harakatlar natijasi sug'urta mukofotlarining yalpi ichki mahsulotdag'i ulushi oxirgi besh yil ichida qariyb ikki barobarga oshirishga erishildi. Lekin bu ko'rsatkich haligacham pastligicha qolmoqda. Sug'urta tizimi hali iqtisodiy sub'ektlarning risklarni boshqarishning samarali tizimiga aylangani yo'q, uning qamrovi haligacham past darajada qolmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar natijasida sug'urta mukofotlarining aholi jon boshiga ulishi yildan-yilga o'sish tendensiyalarini namoyon etib kelmoqda. Bu ko'rsatkich orqali mamlakatda jamiyatning sug'urta institutlariga bo'lgan yondashuvni aks ettiradi. Bunda biz odatda xorijiy mamlakatlarda sug'urta rivojlanganligi aks ettiruvchi qaror ko'rsatkichlarni keltirib o'tishimiz mumkin bo'ladi, bularga misol qilib, sug'urta madaniyatining shakllanganligi, sug'urtaning kirib borish darajasi, zararlarни adolatlari va shaffof bartaraf etilishi, sug'urta mahsulotlarining narxları, majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlarining o'zaro nisbati, sug'urta mukofotlari va qoplamarining zararlilik darajasi, sug'urta mukofotlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorlari, aholining real daromadlari, sug'urta tariflarning miqdorlari va boshqalarni keltirib o'tishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm. 2018-2023 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofotlari dinamikasi, ming so'nda¹

Joriy yildagi mukofotlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushi so'nggi besh yilda 3,3 baravarga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Bu albatta rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan ancha kam buni biz barcha ko'rsatkichlardan ham ko'rib ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Lekin mamlakat iqtisodiyotning mayjud moliyaviy-iqtisodiy holati uchun bu ko'rsatkichning oxirgi yillarda bunday katta ijobjiy o'sish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, bizgacha va biz tomonimizdan olib borilgan izlanishlardan shuni ta'kidlashimiz mumkinki, milliy sug'urta bozorimizning salohiyati hali to'laligicha olib berilmagan, uning rivojlanishi ko'plab imkoniyatlar bor. Shuningdek, yaqin istiqbolda uning ko'rsatkichlari va ulushlari sezilarli oshishi bashorat qilinmoqda, eng asosiyisi bunga erishish uchun bizda barcha shart-sharoitlar mayjud. Bularni amalga oshirish sug'urta bozorini aholi orasida keng tarqalishi va sug'urtaning ko'lamenti oshib borish bilan birlgilikda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining tahviligi hisobotlariga ko'ra 2023 yilda mamlakatda mayjud sug'urta kompaniyalari tomonidan 8,1 trln.so'm sug'urta mukofotlari yig'ilgan (88% ixtiyoriy sug'urta, 8% hayot sug'urtasi, 8% majburiy sug'urta turlari hisobiga to'g'ri keladi). Shunga mos ravishda sug'urta koplamlari ham oldindi yilga qaraganda kamayish tendensiyasini namoyon etgan holda 2,2 trln.so'mni tashkil etdi (22% hayot sug'urtasi, 66% ixtiyoriy sug'urta, 12% majburiy sug'urta).

1-jadval O'zbekiston sug'urta bozorining dinamik tuzilishi ³				
Курсланич йил	Сутурта компанийнтар сони	Сутурта мукофотлари (млрд.сўм)	Сутурта кoplамалари (млрд.сўм)	Жами устав капитали (млрд.сўм)
2015	30	515,5	111	420,7
2016	26	692,6	130,5	443,1
2017	27	927,4	209,9	321,6
2018	30	1635,2	460,8	543
2019	36	2313,9	813,5	755,2
2020	40	2212	732	1439,1
2021	42	3733	1235	1545,7
2022	41	6231,7	2596,9	1884,1
2023	38	8059,7	2022,1	2299,0
Сутурта бозори таржеби		2022 йил	2023 йил	Ўзгариш %
Жами сутурта компанийнтарини тасвирлашадиган мукофотлари жами устав капитали (млрд.сўм)		41	38	-7,3%
Сутурта компанийнтарининг жами устав капитали (млрд.сўм)		1 884 111	2 298 572	+22,0%
Сутурта брокерлари сони		7	8	+14,3%
Сутурта акутапарлари сони		5	5	0%
Сутурта инсурсандарини сони		9155	4 736	-58,3%
Тўлоқларни кафолатланган фонди шарткорикчиларини сони		25	26	+4,0%

1-jadvalda shuni ko'rishimiz mumkinki, sug'urta bozorida 2023 yilda sug'urta kompaniyalar sonida keskin o'zgarishlar sodir bo'lgan. Sug'urta bozori boshqa sub'ektlarida turli o'zgarishlar yuz bergan, sug'urta brokerlari va qayta sug'urta brokerlari 8 ta (o'tgan yili 7 ta), aktuariylarda o'sish tendensiyasi namoyon bo'lmasan (5 ta), sug'urta agentlari soni 4736 ta (o'tgan yili 9155) tashkil etgan. Bu sug'urta mahsulotlarini sotishda yangi sotish kanallarining paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Sohaga yangi raqamli texnologiyalarning kerib kelishi bilan asoslash mumkini bo'ladi. Sug'urta kompaniyalarining ustav kapitalini aks ettiradigan ko'rsatkichlarning yildan yilga oshib borishi milliy sug'urta bozorida yig'iladigan sug'urta mukofotlarining milliy sug'urta kompaniyalarini ixtiyorida qolayotganligidagi ham dalolat berib turibti, qolaversa bu ko'rsatkichlarning yuqori bo'lishi ularning moliyaviy barqarorligini ham aks ettiradi. Bu borada hukumatning sug'urta kompaniyalarining ustav kapitalini doimiy ravishda oshirib borishidagi siyosati o'z samarasini berib kelmoqda.



Mayjud holat va proqnoz ko'rsatkichlari tahsilidan shuni ko'rishimiz mumkini, 2018 yilda sug'urta mukofotlari 1635,2 mlrd.so'mni tashkil etgan holda 2019 yilda 2313,9 so'mni tashkil etib 678,7 mlrd.so'mga oshgan. 2019 yilda butun dunyoda yuz bergan Covid-2019 lokdauni natijasida sug'urta mukofotlari 2019 yilda 2313,9 mlrd.so'mni 2020 yilda 2209,6 mlrd.so'mni tashkil etgan holda 104,3 mlrd.so'mga kamaygan. Mamlakatimizda Covid-2019 ta'siri va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida olib borilgan sayyi-harakatlar natijasida sug'urta mukofotlarining 2021 yilda 3732,8 mlrd.so'mni tashkil etgan (o'sish 1523,2 mlrd.so'm). Pandemianing keyingi yillarda iqtisodiyotning barcha sohalardira yuz bergan ijobji iqtisodiy o'sish sug'urta sohasini ham chetlab o'tmadi. Buning natijasida 2022 yilda 6231,6 mlrd.so'm sug'urta mukofotlari yig'ilishiha erishildi. Olib borilgan tahlillar natijasida 2024 yilda 11003,5 mlrd.so'm, 2025 yilda 13391,0 mlrd.so'm sug'urta mukofotlari yig'ilishi proqnoz qilindi. Bunday bashorat iqtisodiyotning salohiyatlari va moliya sohasida yuz berayotgan ijobji tendensiyalarni hisobga olgan holda bashorat qilindi.

Foydalilanilgan adabiyotlar (Список использованной литературы / References):

- Kholbaev A.Yu. Information Risk Insurance: Concept and Basic Aspects // International Journal of Trend in Scientific Research and Development, Vol. 6, Issue 1, November-December 2021. – Pp.760-766.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 martdagisi PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlanishining kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6824178>

Barcha sohada bo'lgani kabi iqtisodiy o'sish o'z navbatida qandaydir resurslarni jaib qilishni nazarda tutadi, bu resurslarni biz xarajatlarga tenglashtirishimiz mumkin bo'ladi. Sug'urta sohasida bunday xarajatlarni tom ma'noda sug'urta qoplamlariga qiyoslash o'rnlidir. Sug'urta mukofotlari o'sgan sari sug'urta qoplamlarining oshishi bu tabiiy iqtisodiy jarayondir.

Joriy yilda sug'urta mukofotlari ortgan bo'lsa sug'urta qoplamlari 2022 yilga nisbatan kamayish tendensiyasini namoyon etgan. Bu 2022 yilda hayot sug'urtasida jamg'arib borilgan sug'urta turlaridagi islohatlar natijasida yuz berganligini biz yuqori boblarimizda aytib o'tganiz. Shuningdek, sug'urtaning umumiy tarmog'iadi sug'urta turlari bo'yicha sug'urta koplamlarini to'lab berish borasida o'sishni ko'zatishimiz mumkin bo'ladi. Shunday qilib, 2023 yilda milliy sug'urta bozori sub'ektlari (sug'urta kompaniyalari) tomonidan umumiy nisbatda 2022,0 mlrd.so'm sug'urta qoplamlari sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta hodisalari yuz berishi natijasida sug'urtalanuvchilarga to'lab berilgan. Bu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan -22,1 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Milliy sug'urta bozorimiz barcha rivojlangan mamlakatlar kabi sug'urtata tarmoqlaridan kelib chiqib sug'urta turlari klasslarga ajratilgan. Sug'urta sohasi umumiy sug'urta sohasi (18-ta klass) va hayot sug'urta qilish sohasiga (7-ta klass) bo'linadi, bundan kelib chiqqan holda barcha sug'urta turlari o'zlarining ayrim xususiyatlari va risklarni hisobga olgan holda klasslarga birlashtiriladi. Yuqori boblarda olib borilgan tahlillar natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, milliy sug'urta klassifikatorida informatsion risklarni sug'urtalash bo'yicha maxsus klass mavjud emas. Milliy sug'urta bozorimizda informatsion risklarni sug'urtalash sug'urta klassifikatorining quyidagi klasslari orqali amalga oshirilib kelinmoqda, jumladan, 1-klass – Baxtsiz hodisalardan ehtiyoj shart sug'urta qilish; 8-klass – Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish; 9-klass – Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish; 13-klass – Umumi fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish; 16-klass – Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish; 17-klass – Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish.

Xulosa

Mamlakatimizda informatsion risklarni sug'urtalash yo'lidagi to'siqilar qatoriga sug'urtalovchilarning bu boradagi tajribasi yo'qligi va shunga mos ravishda ularning ma'lum darajada malakasizligi kiradi. Tadqiqotlari natijasida muammolar asosan salohiyatlari sug'urtalovching IT-tehnologiyalari va xavfsizligi ta'minlashning asosiy mazmun mohiyatini tushinib yetmasliklaridan kelib chiqadi. Ayrim hollarda uning asl maqsadi sug'urtalanuvchilar uchun ko'pincha tushunarsiz bo'ladi.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda informatsion risklarni baholashga o'ziga xos yondashuv mavjud emas va informatsion risklarni sug'urtalash bo'yicha alohida sug'urta tariflari ham mavjud emas, buning uchun sug'urtaning xavfli turlari bo'yicha odatiy metodologiya qo'llaniladi, bu bizning mamlakatimizda ushbu segmentning rivojlanishini sekinlashtiradi.

Xulosa o'rniда shuni ta'kidlash mumkinki, milliy sug'urta bozorimizda informatsion risklarni sug'urtalash sug'urta turi o'zining rivojlanish bosqichlarini boshidan kechirmoqda. Bunda nafaqat sug'urta kompaniyalari va salohiyatlari sug'urtalanuvchilar balki davlat ham bir qator samarali qiziqishlarni namoyon etib kelmoqda. Bunday sharoitlarda bu sug'urta turining yaqin kelajakdagagi istiqboli ijobjiy holatlarni namoyon etishi to'g'risida ta'kidlashimiz mumkin bo'ladi. Lekin bu sohadagi qilinishi kerak bo'lgan ishlar ancha ko'pdir. Masalan informatsion risklarni sug'urtalash bo'yicha haligacha mukammal qonunchilik bazasi yaratilмаган, balki boshlang'ich davrlarda ularning ijtimoiyo yo'naltirilgan majburiy ko'rinishlarini joriy etish to'g'risida ham fikrlar yuritish o'rni bo'ladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi PQ-4412-son "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloq qilish va uning jadal rivojanishimi ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-4459802>
4. Xolbaev A.Yu. Страхование информационных рисков (киберстрахование) // «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy-elektron jurnali. – Toshkent, 2021. 2-son.
5. Xolbaev A.Yu. Informatsion risklarni sug'urtalash amaliyoti va muammolari (kiber sug'urta) // «Logistika va iqtisodiyot» ilmiy-elektron jurnali. – Toshkent. 2021. 3-son. – S.433-439.
6. Kenjaev I.G'. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari. I.f.f.d. PhD ilmiy darajasini olish yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2019 yil.
7. Kolbaev A.Yu. O'zbekistonda informatsion risklarni sug'urtalash amaliyotini takomillashtirish istiqbollari. I.f.f.d. PhD ilmiy darajasini olish yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2025 yil.
8. Azimov R.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida risklarni sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: – 2022. – 86 b.
9. Baymuratov T.M. O'zbekistonda sug'urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: - 2004. – 22 b.
10. Abduraxmanov I.X. Teoriya i praktika straxovaniya: Uchebnik, – T.: «Iqtisod-moliya», 2019. -696 str.
11. Xalikulova G.T. Sug'urta tizimi va uni amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: – 2019. – 62 b.
12. <http://www.napp.uz> – O'zbekiston Respublikasi Istiqlolli loyihalar milliy agentligining rasmiy sayti ma'lumotlari.